


Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari hajmi 2561,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,9 % ga o'sdi.

Xizmatlar tarkibida jami xizmatlarning eng katta ulushi: transport xizmatlari (26,9 %), savdo xizmatlari (23,7 %), moliyaviy xizmatlar (17,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,3 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, %




Ma'lumot uchun: 2018-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 2027,5 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2019-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan (534,4 mlrd. so'mga) oshdi. Joriy yilning oldingi 2019-yil yanvar-may oyi davriga nisbatan xizmatlar hajmi (468,6 mlrd. so'mga) ko'paydi.

2019-yilda ayrim xizmat turlari hajmining

taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga transport xizmatlari (132,3 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (113,4 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (84,4 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (28,1 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2019-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar
kesimida xizmatlar ishlab chiqarish**


	Hajmi mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2561,9	117,9
Nukus sh	1600,7	120,5
Amudaryo	84,2	109,2
Beruniy	84,5	107,6
Qorao'zak	21,8	108,1
Kegeyli	27,6	108,1
Qo'ng'irot	317,0	129,3
Qonliko'l	21,0	108,1
Mo'ynoq	9,5	108,2
Nukus t.	20,1	108,8
Taxiatosh	19,9	108,3
Taxtako'pir	22,7	108,2
To'rtko'l	109,1	107,7
Xo'jayli	101,9	104,4
Chimboy	38,6	106,3
Shumanay	19,5	110,4
Ellikqal'a	63,8	109,1

Hududlar o'ttasida eng katta hajm Nukus sh. (1600,7 mlrd. so'm), Qo'ng'irot (317,0 mlrd. so'm), To'rtko'l (109,1 mlrd. so'm), Xo'jayli (101,9 mlrd. so'm), tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Mo'ynoq (9,5 mlrd. so'm) tumanida kuzatilmoqda.


2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, 2019-yil yanvar-iyun oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Qo'ng'irot tumani (129,3 %), Nukus shahri (120,5 %) va Shumanay tumani (110,4 %) qayd etildi.

**. 2019-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Chimboy (106,3 %), Xo`jayli (104,4 %) tumanlarida kuzatildi.

**2019- yil yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha
jami xizmatlar hajmida shahar va tumanlarning ulushi, %**




Jami xizmatlar hajmida eng katta ulushni hududlar o'rtasida Nukus shahri (62,5 %), Qo'ng'iroq (12,4 %), va To'rtko'l (4,2 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Mo'ynoq (0,4 %), Shumanay (0,7 %) Taxiatosh (0,8 %), Qarao'zak (0,8 %), Nukus (0,8 %), Qanliko'l (0,8 %) va Taxtako'pir (0,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1365,7 ming so'mga teng bo'ldi. 2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish 16,2 % ni tashkil qildi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlari, ming so'm



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida - 5063,8 ming so'm qayd etildi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Taxiatosh tumanida - 272,8 ming so'm qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Qo'nq'iroq tumanida - 127,8 % kuzatildi.

**2019-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	2561,9	117,9
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	160,6	110,5
moliyaviy xizmatlar	451,5	181,5
transport xizmatlari	689,2	115,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	359,5	101,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	77,5	103,2
savdo xizmatlari	605,8	104,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	86,4	102,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	109,7	120,3
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	28,3	100,1
ijara xizmatlari	56,4	106,1
kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	78,1	102,2
shaxsiy xizmatlar	97,9	106,8
me'morchilik sohasidagi xizmatlar	50,4	131,0
boshqa xizmatlar	70,1	100,3

**2019-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



- | | |
|---|---|
| 1 Xizmatlar - jami
2 Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
3 Moliyaviy xizmatlar
4 Transport xizmatlari
5 Yashash va ovqatlanish xizmatlari
6 Savdo xizmatlari
7 Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlari | 8 Ta'lim sohasidagi xizmatlar
9 Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
10 Ijara xizmatlari
11 Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yichaxizmatlar
12 Shaxsiy xizmatlar
13 Me'morchilik sohasidagi xizmatlar
14 Boshqa xizmatlar |
|---|---|

2019-yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (81,5 %); me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (31,0 %); talim sohasidagi xizmatlar (20,3 %); kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2019-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining ulushi, %**

Transport xizmatlari	26,9 %
Savdo xizmatlari	23,7 %
Moliyaviy xizmatlar	17,6 %
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6,3 %
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	4,3 %
Shaxsiy xizmatlar	3,8 %
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,4 %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,0 %
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,0 %
Boshqa xizmatlar	2,7 %
Ijara xizmatlari	2,2 %
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	2,0 %
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,1 %

Jami xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (26,9 %), savdo xizmatlari (23,7 %), moliyaviy xizmatlar (17,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,3 %) hissasiga to`g`ri keldi.

**2019-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Transport xizmatlari	689,2 mIrd. so'm
	Savdo xizmatlari	605,8 mIrd. so'm
	Moliyaviy xizmatlar	451,5 mIrd. so'm
	Boshqa xizmatlar	205,2 mIrd. so'm
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	160,6 mIrd. so'm
	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	109,7 mIrd. so'm
	Shaxsiy xizmatlar	97,9 mIrd. so'm
	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	86,4 mIrd. so'm
	Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	78,1 mIrd. so'm
	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	77,5 mIrd. so'm

Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi transport xizmatlari (689,2 mIrd. so'm), savdo xizmatlari (605,8 mIrd. so'm), moliyaviy xizmatlari (451,5 mIrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (160,6 mIrd. so'm) bo'yicha kuzatildi.

Hozirgi vaqtida savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari hudud iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiylajmiining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.


2019-yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 605,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiylajmidagi ulushi 23,7 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 76,3 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 16,6 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiylajmi savdo xizmatlari hajmida 7,1 % ni egallaydi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



- **Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar**
- **Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**
- **Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**

**2019-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
savdo xizmatlari hajmi**




Savdo xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida (261,5 mlrd. so'm), Xo'jayli (58,5 mlrd. so'm) va To'rtko'l (55,8 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko'rsatkich Mo'ynoq (3,0 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 605,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,2 %.


**2019-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha
savdo xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o'sish sur'ati Shumanay tumani (109,7 %), Nukus shahri (107,3 %) va Nukus tumfnida (104,6 %).

Eng kam o'sish sur'ati Xo'jayli (98,0 %) tumanida qayd etildi.

**2019-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
savdo xizmatlari ulushi, %**




Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni hududlar o'rtasida Nukus shahri (43,2 %) va Xo'jayli (9,7 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Mo'ynoq (0,5 %) va Shumanay (1,3 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari hajmi 689,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,0 %

**2019-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha
transport xizmatlarining o'sish sur'ati va hajmi, %**



Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida (293,7 mlrd. so'm) va Qo'ng'iroq tumanida (249,8 mlrd. so'm) qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Mo'ynoq tumanida (1,5 mlrd. so'm) qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan transport xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Qo'ng'iroq tumanida (37,7 %) kuzatildi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlарini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 451,5 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 181,5 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



**Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi
bo'limi
Mas'ul:B.Tajibekov
(71)230-82-15**